MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BAZARBAYEV SARDOR URINBOYEVICH

KO‘P KOMPLEKS O‘ZGARUVCHILI KO‘PHADSIMON AKSLANTIRISHLARNING KATTA ENTROPIYALI O‘LCHOVLARI

01.01.01 — Matematik analiz

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT — 2025

УДК: 517.55+517.57

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of the abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Physical and Mathematical Sciences

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BAZARBAYEV SARDOR URINBOYEVICH

KO‘P KOMPLEKS O‘ZGARUVCHILI KO‘PHADSIMON AKSLANTIRISHLARNING KATTA ENTROPIYALI O‘LCHOVLARI

01.01.01 — Matematik analiz

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT — 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/FM1390 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (http://ik-fizmat.nuu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (http://www.ziyonet.uz/) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Raximov Karim Xoshimovich** Fizika-matematika fanlari doktori, Katta ilmiy xodim
Ilmiy maslahatchi:	**Fabrizio Bianchi** Italiyaning Piza universiteti professori
Rasmiy opponentlar:	**Roziqov O'tkir Abdulloyevich** Fizika-matematika fanlari doktori, akademik
	Duc Viet Vu Germaniyaning Köln universiteti professori
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 11-dekabr soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: +998-71-227-12-24, faks: +998-71-246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (219-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: +998-71-246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 5-dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 5-dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi)

O.S. Zikirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,

R.M.Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
f.-m.f.f.d (PhD)

R.N.Ganixodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dissertatsiya koʻp kompleks oʻzgaruvchili koʻphadsimon akslantirishlarning dinamik xossalarini oʻrganishga bagʻishlangan va yangi yoʻnalishlardan biri. Koʻp oʻzgaruvchili kompleks dinamik sistemalarni oʻrganish zamonaviy matematikada markaziy mavzulardan biriga aylandi. Bu sohaga boʻlgan qiziqish geometriya, ehtimollar nazariyasi, ergodiklik nazariya va nazariy fizika bilan chuqur aloqadorligi bilan izohlanadi. Ushbu yoʻnalishdagi asosiy tushunchalardan biri *entropiya* boʻlib, u xaotik dinamik harakatning murakkabligi va oldindan aytib boʻlmasligini miqdoriy ifodalaydi.

Kompleks dinamikadagi klassik va fundamental muammolardan biri bu — kompleks proyektiv fazolarning golomorf endomorfizmlarini ularning Julia va Fatou toʻplami tuzilishi orqali tadqiq etishdir. Bir kompleks oʻzgaruvchili holatida ushbu nazariya yaxshi rivojlangan boʻlib, ushbu holda Riman teoremasi muhim rol oʻynaydi. (Pierre Fatou, Gaston Julia, Jean-Christophe Yoccoz, Mikhail Lyubich, Mitsuhiro Shishikura, Adrien Douady, John H. Hubbard, John Milnor, Nessim Sibony, B. Mandelbrot, Denis Sullivan, McMullen va boshqalar). Biroq, yuqori oʻlchamli holatlarda Riman teoremasi amal qilmaydi. Bunday vaziyatda asosiy vosita pluripotensiallar nazariya hisoblanadi, chunki u zarur analitik va geometrik asosni taʼminlaydi. Koʻphadsimon akslantirishlar dinamikasini oʻrganish shu sababli endomorfizmlar dinamikasidan murakkab hisoblanadi hamda zamonaviy matematikada dolzarb masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Koʻp kompleks oʻzgaruvchili koʻphadsimon akslantirishlarning katta entropiyali oʻlchovlarining xossalarini koʻp kompleks oʻzgaruvchili dinamik sistemalardagi dolzarb masalalarni yechishga tadbiq qilishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Aytaylik, $f:\mathbb{P}^k\to\mathbb{P}^k$ algebraik darajasi $d\geq 2$ boʻlgan golomorf endomorfizm boʻlsin. Shunda f -invariant boʻlgan, *Grin oqimi* deb ataluvchi musbat yopiq $(1,1)$-oqim T mavjud boʻlib $d^{-n}(f^n)^*\omega_0\to T$ kuchsiz yaqinlashish oʻrinli boʻladi, bu yerda ω_0 massasi 1 boʻlgan silliq, musbat, yopiq $(1,1)$-forma. Yuqorida aniqlangan T oqim oʻziga xos geometrik xossalarga ega, jumladan, u Gyolder uzluksiz potensialga ega boʻladi. Natijada, $\mu:=T^{\wedge k}$ tashqi koʻpaytma yaxshi aniqlangan boʻlib, f uchun entopiyasi maksimal $k\ln d$ boʻlgan yagona oʻlchov boʻladi. Uning havzasi f ning *Julia toʻplami* deyiladi. Bundan tashqari, de Thélin va Dinh natijasiga koʻra, entropiyasi $(k-1)\ln d$ dan qatʼiy katta boʻlgan har qanday ergodik oʻlchov aynan shu Julia toʻplamida yotadi. Ushbu natijaning isboti asosan Grin oqimini qurishga va uning ketma-ket oʻzaro tashqi koʻpaytmalari $T^{\wedge j}$ ga oid nozik induksiyaga tayangan. Bunday usullarni noalgebraik holatlarga kengaytirish sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki umumiy holda yaʼni noalgebraik holatlarda dinamik Green oqimi mavjud boʻlavermaydi. Mazkur dissertatsiyada biz ushbu muammoni *dominant topologik darajaga ega boʻlgan koʻphadsimon akslantirishlar* doirasida koʻrib chiqamiz. Bizning yondashuvimiz nafaqat ushbu kengroq kontekstda yechim beradi, balki Grin oqimiga tayanmasdan de Thélin–Dinh teoremasining muqobil isbotini ham taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu dissertatsiyaning *dolzarbligi* ko‘p kompleks o‘zgaruvchili dinamik sistemalarni anglashga qo‘shgan fundamental hissasida namoyon bo‘ladi, uning *zaruriyligi* esa entropiya nazariyasini algebraik dinamikaning doirasidan tashqariga kengaytirishdagi hal etilmagan muammolar va entropiya markaziy rol o‘ynaydigan keng qamrovli fanlararo qo‘llanilish sohasi bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda, ayniqsa, oxirgi yillarda fundamental fanlar, xususan, matematika va fizika, ular bilan bir qatorda tibbiy va geologik tomografiya masalalarida ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb yo‘nalishlarga e’tibor kuchaydi. Jumladan, so‘nggi yillarda funksiyalar nazariyasi, ko‘p o‘lchovli kompleks analiz, plyuripotensiallar nazariyasi, approksimatsiyalar nazariyasi va kompleks dinamik sistemalar nazariyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi qaralayotgan masalalarning naqadar dolzarbligi va zarurligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ko‘p kompleks o‘zgaruvchili ko‘phadsimon akslantirishlarni tadqiq qilishda salmoqli ilmiy natijalarga erishildi. “Haqiqiy o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi” va “Kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi” fanlarining ustuvor yo‘nalishlarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish, ularning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish matematika fanining faoliyat yo‘nalishlari va muhim vazifalari sifatida belgilab berilgan.[1] Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan optimallashtirish masalalarining yechimlari bo‘lgan Grin funksiyasi, ehtimollik o‘lchov funksiyalari va Dirixle masalalarining yechimga egaligini o‘rganishda ko‘p kompleks o‘zgaruvchili akslantirishlar nazariyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish mazkur qaror ijrosini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789 sonli va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarorlarida, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan masalalarni hal etishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘phadsimon akslantirishlar — bu $f:U\to V$ ko‘rinishdagi golomorf akslantirishlar bo‘lib, bu yerda $U\Subset V$ — $\mathbb{C}^k$ ning ochiq qism to‘plamlari va V esa chegaralangan qavariq soha hisoblanadi. Ta’rifga ko‘ra, har bir ko‘phadsimon akslantirish tarmoqlanuvchi qoplama aniqlaydi va f

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

yaxshi aniqlangan *topologik daraja* d_t ga ega bo‘ladi. Har bir $0 \le p \le k$ uchun quyudagi ko‘rinishda *dinamik darajalar*ni aniqlash mumkin:

$$d_p = d_p(f) := \limsup_{n\to\infty} \sup_S \|(f^n)_*(S)\|_U^{1/n},$$

bu yerda supremum U dagi massasi 1 dan katta bo‘lmagan barcha musbat yopiq $(k-p,k-p)$-oqimlar bilan olinadi. Shuni qayd etamizki, har doim $d_0 = 1$ va $d_k = d_t$ tengliklari o‘rinli. Bianchi–Dinh–Raximov teoremasiga ko‘ra, $\{d_p\}_{0\le p\le k}$ ketma-ketlik o‘suvchi bo‘ladi. Shunday qilib, xususan, $\max_{0\le p\le k-1} d_p = d_{k-1}$ ga egamiz. Agar $d_{k-1} < d_t$ bo‘lsa, f akslantirish *dominant topologik darajaga ega* deymiz. Qayd etish joizki, bu holda har doim $d_t \ge 2$ bo‘ladi. Dominant topologik darajaga ega bo‘lgan ko‘phadsimon akslantirishlar endomorfizmlarning ko‘plab dinamik xossalariga ega (biroq, ularni o‘rganish odatda texnik jihatdan murakkabroq bo‘ladi, chunki tabiiy tarzda aniqlangan Grin oqimi mavjud emas). Xususan, har bir bunday f uchun entropiyasi $\log d_t$ bo‘lgan maksimal entropiyali yagona μ o‘lchov va shunday xos analitik $\mathcal{E} \subset V$ to‘plam mavjud bo‘lib quyidagi o‘rinli bo‘ladi:

$$d_t^{-n}(f^n)^*\delta_a \to \mu, \quad \forall a \in V \setminus \bigcup_{j=0}^{\infty} f^j(\mathcal{E}). \tag{*}$$

Shuni ta’kidlash kerakki, $\mathbb{P}^k$ golomorf endomorfizmlari holatidan farqli o‘laroq, bu yerda $\mathcal{E}$ to‘plam f-invariant bo‘lmasligi mumkin va $\cup_{j=0}^{\infty} f^j(\mathcal{E})$ analitik to‘plam bo‘lishi shart emas. Biz μ ning havzasi J_f ni f ning Julia to‘plami deb ataymiz. Mazkur dissertatsiyaning asosiy maqsadlaridan biri (*) dagi yaqinlashish tezligini o‘rganishdir. Dinh–Sibony natijasiga ko‘ra, $0 < \gamma < 1$ shartni qanoatlantiruvchi shunday o‘zgarmas son mavjud bo‘lib V da aniqlangan plurigarmonik funksiyalarning ixtiyoriy kompakt oilasi $\mathcal{F}$ dagi har bir ψ funksiyasi uchun

$$|d_t^{-n}(f^n)_*\psi - \langle\mu,\psi\rangle| \le C_{\gamma,\mathcal{F}}\gamma^n \tag{**}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi, bu yerda $C_{\gamma,\mathcal{F}}$ doimiy γ va $\mathcal{F}$ oilaga bog‘liq, ammo ψ funksiyaning o‘ziga bog‘liq emas. Biz $\gamma_0 = \gamma_0(f)$ orqali (**) bajariladigan γ larning infimumini belgilaymiz. Mazkur dissertatsiyada biz γ_0 uchun yuqori baho keltiramiz. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, maksimal entropiyaga ega μ o‘lchovning havzasi f uchun Julia to‘plami hisoblanadi. Mazkur dissertatsiyaning asosiy maqsadlaridan biri katta entropiyali o‘lchovlar ya’ni $h_\nu(f) > \log\max\{d_{k-1}, \gamma_0 d_t\}$ shartni qanoatlantiruvchi o‘lchovlarning havzalarini o‘rganish va ushbu natijani qo‘llab Julia to‘plamini Xausdoff o‘lchamini quyidan baholash.

2023-yildan boshlab O‘zMU “Matematik analiz” kafedrasi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida kompleks dinamik sistemalar bo‘yicha jadal ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasisining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘likligi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ilmiy-tadqiqot granti IL-5421101746 raqamli rejalashtirilgan mavzuga muvofiq ravishda, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi — ko‘phadsimon akslantirishlar uchun katta entropiyali o‘lchovlarni o‘rganish va maksimal entropiyali o‘lchovning havzasiga nisbatan teng taqsimlanishning yaqinlashish tezligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko‘phadsimon akslantirishlar uchun maksimal entropiyali o‘lchovning havzasiga nisbatan teng taqsimlanishning yaqinlashish tezligini isbotlash;

maksimal entropiyali o‘lchovning havzasiga nisbatan teng taqsimlanishning yaqinlashish tezligining yuqori chegarasini topish;

ko‘phadsimon akslantirishlar uchun katta entropiyali o‘lchovlarning havzasini o‘rganish va ularning havzasi Julia to‘plamida yotishini isbotlash;

ko‘phadsimon akslantirishlarning Julia to‘plamining Hausdorff o‘lchami uchun quyi chegarani topish.

Tadqiqot obyekti. Dominant topologik darajaga ega ko‘phadsimon akslantirishlar, ko‘phadsimon akslantirishlar uchun katta entropiyali o‘lchovlar, stabil ko‘phadsimon akslantirishlar oilasi, ko‘phadsimon akslantirishlarning Julia to‘plami.

Tadqiqot predmeti. Kompleks analiz, pluripotensiallar nazariya, ergodiklik nazariya, kompleks dinamik sistemalar, o‘lchovlar nazariyasi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda zamonaviy kompleks analiz, ergodiklik nazariya, kompleks dinamik sistemalar, klassik potensiallar nazariya va pluripotensiallar nazariya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko‘phadsimon akslantirishlar uchun katta entropiyali o‘lchovlarning havzasi Julia to‘plamida joylashishi isbotlangan;

ko‘phadsimon akslantirishlar uchun maksimal entropiyali o‘lchovning havzasiga nisbatan teng taqsimlanishning yaqinlashish tezligi aniqlangan;

maksimal entropiyali o‘lchovning havzasiga nisbatan teng taqsimlanishning yaqinlashish tezligida ixtiyoriy $\gamma > \sqrt{\frac{d_{k-1}}{d_t}}$ asos ekanligi isbotlangan;

ko‘phadsimon akslantirishlarning Julia to‘plami uchun Hausdorff o‘lchamining quyi chegarasi topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Ushbu dissertatsiyada keltirilgan natijalar va metodologiyalar oliy ta’lim muassasalarida magistratura va doktorantura talabalariga mo‘ljallangan maxsus kurslarga tatbiq etilishi mumkin.

Ko‘p kompleks o‘zgaruvchili ko‘phadsimon akslantirishlarning katta entropoiyali o‘lchovlarininh xossalairni isbotlashda yaratilgan metod fundamental bo‘lib, boshqa turdagi akslantirishlar uchun ham qo‘llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar zamonaviy kompleks analiz, ergodiklik nazariya, kompleks dinamik sistemalar va pluripotensiallar nazariyasi usullaridan foydalanib olingan. Olingan barcha natijalar matematik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ko‘phadsimon akslantirishlar uchun katta entropiyali o‘lchovlarning havzasi Julia to‘plamida joylashishi isbotlandi va maksimal entropiyali o‘lchovning havzasiga nisbatan teng taqsimlanishning yaqinlashish tezligi aniqlab berildi.

Ushbu natijalar ko‘phadsimon akslantirishlarning tuzilishi va dinamikasini chuqurroq anglashga yordam beradi va texnik, fizik hamda biologik jarayonlarning matematik modellashtirilishida foydali bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Tadqiqot davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

maksimal entropiyali o‘lchovning havzasiga nisbatan yaqinlashish tezligi FA-F-4-002 “Subgarmonik funksiyalar va ularning kalibrlangan geometriyadagi minimal sirtlarga tatbiqlari” fundamental ilmiy loyiha doirasida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2021-yil 30-sentabrdagi 2/1255-2687-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijaning tatbiqi bizga subgarmonik funksiyalar singari funksiyalarni aniqlash va kalibrlangan geometriyada potensial nazariyani qurish imkonini bergan;

Grin funksiyalari va ularning regulyarligiga oid olingan natijalar UT-OT-2020-1 “Monj–Amper tenglamasi va ekstremal plurisubgarmonik funksiyalar” fundamental ilmiy loyiha doirasida, ya’ni singulyar to‘plamlarda subgarmonik funksiyalarni aniqlash masalalarida qo‘llanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2021-yil 4-oktabrdagi 04/11-6015-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijaning tatbiqi kompakt to‘plamlarning polyar qobig‘ini aniqlash va funksiyalarning singulyar to‘plamlarda subgarmoniklik xossasini tekshirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 5 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy maqola ilmiy jurnallarda chop etilgan bo‘lib, ulardan 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan PhD dissertatsiyasini himoya qilish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan, 2 tasi xalqaro va 4 tasi milliy matematik jurnallarda chop etilgan. Ulardan 1 tasi SCOPUS axborot bazasiga kiritilgan va 5 ta tezis mavjud.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismidan, 15 ta paragrafga bo‘lingan to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 73 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan va tahlil qilingan. Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan hamda muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab berilgan. Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati tasvirlangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida asosan keyingi boblarda ishlatiladigan asosiy va muhim tushunchalarning sharhi keltiriladi: musbat yopiq oqimlar, kohomologiya, topologik va metrik entropiya, kompleks proyektiv fazolarning endomorfizmlari dinamikasi. Shuningdek, ushbu bobda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilgari isbotlangan asosiy teoremalarga to‘xtalib o‘tiladi. Bundan tashqari, ushbu bobda endomorfizmlarning katta entropiyali o‘lchovlarining havzasi haqidagi de Thélin va Dinh natijasining yangi isboti ham keltiriladi.

Biz $\mathbb{P}^k$ orqali o‘lchami k bo‘lgan kompleks proyektiv fazoni belgilaymiz.

Ta’rif 1.3.4 $\mathbb{P}^k$ ning *golomorf endomorfizmi* deb, darajalari bir xil $d \geq 1$ bo‘lgan hamda $\mathbb{P}^k$ ning biror nuqtasida bir vaqtda nolga teng bo‘lmaydigan bir jinsli $f_0, \ldots, f_k$ ko‘phadlar orqali berilgan

$$f[z_0 : \ldots : z_k] = [f_0(z_0, \ldots, z_k) : \ldots : f_k(z_0, \ldots, z_k)]$$

$f : \mathbb{P}^k \to \mathbb{P}^k$ *morfizmga aytiladi.*

Yuqorida aniqlangan d soni f ning *algebraik darajasi* deb ataladi. Aytaylik $f : \mathbb{P}^k \to \mathbb{P}^k$ algebraik darajasi $d \geq 2$ bo‘lgan endomorfizm bo‘lsin.

Teorema 1.3.8 (Dinh–Sibony) *Faraz qilaylik,* S $\mathbb{P}^k$ *da massasi* 1 *bo‘lgan musbat yopiq* $(1,1)$*-oqim bo‘lsin. Agar* S *ning lokal potensiallari chegaralangan bo‘lsa, unda* $d^{-n}\left(f^n\right)^*(S)$ *ketma-ketlik massasi* 1 *bo‘lgan musbat yopiq shunday* $(1,1)$*-oqim* T_f *ga zaif yaqinlashadiki, bunda*

1. T_f *ning potensiallari Gyolder uzluksizdir va u* S *ga bog‘liq emas, ya’ni shunday Gyolder uzluksiz* g *funksiya mavjud bo‘lib*

$$T_f = \omega_{FS} + dd^c g$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

2. T_f *to‘la invariant bo‘ladi, ya’ni* $f^*(T_f) = dT_f$ *va* $f_*(T_f) = d^{k-1}T_f$.

T_f ning potensiallari Gyolder uzluksiz bo‘lganligi uchun, har qanday $1 \leq p \leq k$ uchun $T_f^p = T_f \wedge T_f \wedge \ldots \wedge T_f$ (p marta) tashqi ko‘paytma yaxshi aniqlangan. Xususan, $\mu := T_f^k$ - $\mathbb{P}^k$ da ehtimollik o‘lchovini aniqlaydi.

T_f^p ning havzasi J_p – f *ning* p*-tartibli Julia to‘plami* deb ataladi. Ravshanki, quyidagi doim o‘rinli bo‘ladi:

$$J_1 \supset J_2 \supset \ldots \supset J_k.$$

Eng kichik to‘plam J_k – f *ning Julia to‘plami* deb ataladi va J_f orqali belgilanadi.

Teorema 1.3.9 (Dinh–Sibony) *Aytaylik* f *darajasi* $d \geq 2$ *bo‘lgan endomorfizm bo‘lsin. U holda quyidagilar o‘rinli:*

1. f *ning topologik entropiyasi* $k \log d$ *ga teng, ya’ni* $h_t(f, \mathbb{P}^k) = k \log d$;

2. $\mu = T_f^k$ – f*-invariant ergodik ehtimollik o‘lchovidir. Xususan, u entropiyasi* $k \log d$ *bo‘lgan yagona maksimal entropiyali o‘lchov bo‘ladi;*

3. μ *aralashtiruvchi o‘lcho‘v.*

Biz μ ni f ning *Grin o‘lchovi* yoki *muvozanat o‘lchovi* deb ataymiz.

Dissertatsiyaning birinchi bobi oxirida dastlab de Thélin va Dinh tomonidan isbotlangan quyidagi teoremaning yangi isboti keltirilgan.

Teorema 1.3.11 *f algebraik darajasi $d \geq 2$ bo'lgan golomorf endomorfizm bo'lsin. Agar ν f-invariant o'lchov bo'lib, $h_\nu(f) > (k-1)\log d$ shart bajarilsa, unda ν ning havzasi Julia to'plamida yotadi.*

Ikkinchi bobda $\mathbb{C}^k$ da ko'phadsimon akslantirishlar dinamikasi xususan tekis taqsimlangan o'lchovga nisbatan yaqinlashish tezligi isbotlandi. Aytaylik chegaralangan V soha $\mathbb{C}^k$ ning qavariq qismi bo'lib $U \Subset V$ unda kompakt yotgan biror ochiq to'plam bo'lsin.

Ta'rif 2.1.1 *Xos, golomorf $f: U \to V$ akslantirishga ko'phadsimon akslantirish deyiladi.*

Ta'rifga ko'ra, $f: U \to V$ ko'phadsimon akslantirish V to'plamining tarmoqlangan qoplamasi bo'ladi. Ushbu qoplamaning darajasi d_t odatda f ning *topologik darajasi* deb ataladi va u ixtiyoriy $a \in V \setminus f(C_f)$ uchun $f^{-1}(a)$ dagi nuqtalar soniga teng bo'ladi, bu yerda C_f – f akslantirishning kritik nuqtalari to'plami.

Topologik darajasi $d_t \geq 2$ bo'lgan biror $f: U \to V$ ko'phadsimon akslantirishni fiksirlab olamiz. $f^n := f \circ \cdots \circ f$ (n marta kompozitsiya) f ning n-chi iteratsiyasi deb ataladi. Umuman olganda, f ning iteratsiyasini U dagi har bir nuqtada aniqlab bo'lmaydi. Masalan, $a \in U$ nuqta uchun agar $f(a) \in V \setminus U$ bo'lsa, u holda a ning ikkinchi iteratsiyasi mavjud emas. Xuddi shuningdek, $f^{-n}(V \setminus U)$ da joylashgan nuqtalar uchun $(n+1)$-chi iteratsiyani aniqlab bo'lmaydi.

Ravshanki, f^n ochiq $U_{-n} := f^{-n}(V)$ to'plamda aniqlangan. (U_{-n}) ketma-ketlik ichma-ich joylashgan va kamayuvchi bo'ladi, ya'ni

$$U_{-n-1} = f^{-1}(U_{-n}) \Subset U_{-n}.$$

Quyidagi

$$K_f := \bigcap_{n \geq 0} U_{-n}$$

to'plamga f ning *to'ldirilgan Julia to'plami* deyiladi. Bu bo'sh bo'lmagan, kompakt va to'la invariant to'plamdir, ya'ni $f^{-1}(K_f) = K_f = f(K_f)$ tenglik bajariladi. Barcha $z \in K_f$ nuqtalar uchun $z, f(z), f^2(z), \ldots$ iteratsiyalar aniqlangan, shu bilan birga $f^{-n}(z)$ to'plam sifatida barcha $z \in V$ va barcha $n \geq 0$ uchun aniqlanadi. Shunday qilib, $f|_{K_f}: K_f \to K_f$ dinamik sistema hosil qiladi.

Teorema 2.1.7 (Dinh–Sibony) *Aytaylik $f: U \to V$ topologik darajasi $d_t \geq 2$ bo'lgan ko'phadsimon akslantirish bo'lsin. U holda shunday μ ehtimollik o'lchovi va V ning shunday xos analitik qism to'plami $\mathcal{E}$ mavjud bo'lib, agar a nuqta $\mathcal{E}$ ning orbitasida bo'lmasa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty} d_t^{-n} \left(f^n\right)^* (\delta_a) = \lim_{n\to\infty} \frac{1}{d_t^n} \sum_{f^n(z)=a} \delta_z = \mu \qquad (2.1.1)$$

bo'ladi.

Yuqoridagi teoremada aniqlangan μ o'lchov a nuqtaning tanlanishiga bog'liq emas. Bundan tashqari, μ ning havzasi to'ldirilgan Julia to'plami K_f ning chegarasida yotadi va u to‘la invariantdir, ya’ni $d_t^{-1} f^*(\mu) = f_*(\mu) = \mu$ tenglik bajariladi.

Aytaylik $0 \le p \le k$ bo‘lsin. Quyidagi

$$d_p = d_p(f) := \lim_{n\to\infty} \sup \sup_S \| (f^n)_*(S) \|_U^{1/n}$$

qiymatga f ning $p-$ *dinamik darajasi* deyiladi, bu yerda supremum U dagi massasi 1 dan katta bo‘lmagan barcha musbat yopiq $(k-p, k-p)$-oqimlar bo‘yicha olinadi. Shuni qayd etish lozimki, har doim $d_0 = 1$ va $d_k = d_t$ tengliklar bajariladi. Bianchi–Dinh–Raximov teoremasiga ko‘ra, $\{d_p\}_{0\le p\le k}$ ketma-ketlik o‘suvchi bo‘ladi. Xususan, $\max_{0\le p\le k-1} d_p = d_{k-1}$ tengligi o‘rinli bo‘ladi.

Agar $d_{k-1} < d_t$ bo‘lsa, biz f ko‘phadsimon akslantirish *dominant topologik darajaga ega* deymiz. Shuni kuzatish mumkinki, bu holda doimo $d_t \ge 2$ bo‘ladi.

Aytaylik $f: U \to V$ topologik darajasi $d_t \ge 2$ bo‘lgan ko‘phadsimon akslantirish bo‘lsin. Dinh–Sibony natijasiga ko‘ra, shunday $0 < \gamma < 1$ mavjud bo‘lib, V da aniqlangan plurigarmonik funksiyalarning berilgan ixtiyoriy kompakt oilasi $\mathcal{F}$ dagi har bir ψ funksiyasi uchun

$$| d_t^{-n} (f^n)_* \psi - \langle \mu, \psi \rangle | \le C_{\gamma,\mathcal{F}} \gamma^n \tag{2.2.1}$$

tengsizlik bajariladi, bu yerda $C_{\gamma,\mathcal{F}}$ doimiy γ va $\mathcal{F}$ oilasiga bog‘liq lekin ψ funksiyaning o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan doimiy.

Biz $\gamma_0 = \gamma_0(f)$ orqali (2.2.1) bajariladigan γ larning infimumini belgilaymiz. Aytaylik, endi f dominant topologik darajaga ega bo‘lsin. Quyidagi

$$\beta = \beta(f) := \max\{d_{k-1}, \gamma_0 d_t\} \tag{2.2.2}$$

qiymatni aniqlaymiz.

$\mathbb{P}^k$ ning golomorf endomorfizmlari holatida har bir plurigarmonik funksiya doimiy bo‘ladi. U holda (2.2.1) trivial bo‘lib, $\beta = d_{k-1} = d^{k-1}$ bo‘ladi, bu yerda d golomorf endomorfizmning algebraik darajasi. Bizning holimizda esa β uchun quyidagi tengsizlikni isbotlaymiz.

Lemma 2.2.1 *Aytaylik $f: U \to V$ dominant topologik darajali ko‘phadsimon akslantirish bo‘lsin. U holda $\beta(f) \le \sqrt{d_{k-1} d_t}$ bo‘ladi.*

Quyidagi natija ikkinchi bobning asosiy teoremasidir.

Teorema 2.2.2 *Aytaylik $f: U \to V$ dominant topologik darajali ko‘phadsimon akslantirish va μ uning muvozanat o‘lchovi hamda β (2.2.2) dagidek aniqlangan bo‘lsin. Aytaylik λ soni $\beta < \lambda < d_t$ shartni qaonatlantiruvchi son bo‘lsin. U holda $u_\lambda < -1$ shartni qanoatlantiruvchi plyurisubgarmonik funksiya u_λ mavjud bo‘lib, har bir $a \in U$, $\psi \in \mathcal{C}^2(U)$ va $n \in \mathbb{N}$ uchun quyidagi tengsizlik bajariladi*

$$\left| \langle d_t^{-n} (f^n)^* \delta_a - \mu, \psi \rangle \right| \le A \|\psi\|_{\mathcal{C}^2(U)} \left(\frac{\lambda}{d_t} \right)^n |u_\lambda(a)|, \tag{2.2.3}$$

bu yerda A faqatgina λ ga bog‘liq bo‘lgan, ammo a, ψ va n ga bog‘liq bo‘lmagan doimiydir.

Quyidagi natija 2.2.2-teoremasining bevosita natijasi bo‘lib, keyingi bobning asosiy teoremasini isbotlashda qo‘llaniladi.

Natija 2.2.4 *Aytaylik* $f:U\to V$ *dominant topologik darajali ko‘phadsimon akslantirish va* μ *uning muvozanat o‘lchovi hamda* β *(2.2.2) dagidek aniqlangan bo‘lsin.* $K_f\subseteq U'\subseteq U$ *shartni qanoatlantiruvchi ochiq* U' *sohani tanlaymiz va* U' *da silliq ehtimollik o‘lchovi* ω_0 *bo‘lsin. Har qanday* $\beta<\lambda<d_t$ *uchun* $u_\lambda<-1$ *shartni qanoatlantiruvchi shunday plyurisubgarmonik funksiya* u_λ *mavjud bo‘lib, har bir* $\psi\in\mathcal{C}^2(U)$ *va* $n\in\mathbb{N}$ *uchun quyidagi tengsizlik*

$$\left|\left\langle d_t^{-n}(f^n)^*\omega_0-\mu,\psi\right\rangle\right|\le A\|\psi\|_{\mathcal{C}^2(U)}\left(\frac{\lambda}{d_t}\right)^n\int_{U'}|u_\lambda|\omega_0, \qquad (2.2.8)$$

bajariladi, bu yerda A, ω_0, ψ, U' *va* n *ga bog‘liq bo‘lmagan doimiydir.*

Uchinchi bobda biz entropiyasi $\log\sqrt{d_{k-1}d_t}$ dan qat’iy katta bo‘lgan har bir ergodik o‘lchovning havzasi Julia to‘plamida, ya’ni maksimal entropiyali μ o‘lchovning havzasida joylashishini ko‘rsatamiz.

Biz ko‘phadsimon $f:U\to V$ akslantirish uchun quyidagi

$$M=M(f):=\max_{1\le l\le k}\ \max_{z\in f^{-1}(U)}\|\nabla f_l(z)\|, \qquad (3.1.1)$$

doimiyni aniqlab olamiz, bu yerda f_l lar f ning koordinatalari bo‘lib, $\nabla f_l(z)=\left(\frac{\partial f_l(z)}{\partial z_1},\dots,\frac{\partial f_l(z)}{\partial z_k}\right)$ kabi aniqlanadi.

Har bir $m\in\mathbb{N}$ va $1\le i,j\le k$ uchun quyidagi

$$\alpha_{i,j}^{(m)}:=\sum_{l=1}^{k}\frac{\partial f_l^m}{\partial z_i}\frac{\partial\overline{f}_l^m}{\partial\overline{z}_j},$$

funksiyani aniqlaymiz, bu yerda f_l^m lar f^m ning koordinatalarini bildiradi. Shuni kuzatish mumkinki, $\alpha_{i,j}^{(m)}$ lar $f^{-m}(V)$ da silliq funksiyalar bo‘ladi va har bir $N\ge m$ uchun quyidagi

$$(f^m)^*\omega\big|_{f^{-N}(U)}=\sum_{1\le i,j\le k}\alpha_{i,j}^{(m)}dz_i\wedge d\overline{z}_j \qquad (3.1.2)$$

bajariladi, bu yerda $\omega=dd^c|z|^2$.

$|\alpha_{i,j}^{(m)}|_{f^{-N}(U)}$ uchun quyidagi yuqori chegarani olamiz.

Lemma 3.1.1 *Har bir* $1\le m\le N-1$ *uchun quyidagi tengsizlik o‘rinli:*

$$|\alpha_{i,j}^{(m)}|_{f^{-N}(U)}\le k^{2m-1}M^{2m}.$$

Endilikda, soddalik uchun, $m_1\le\ldots\le m_k\in\mathbb{N}$ bo‘lsa, quyidagi belgilashdan foydalanamiz:

$$\Omega_{m_1,\dots,m_k}:=(f^{m_1})^*\omega\wedge\ldots\wedge(f^{m_k})^*\omega. \qquad (3.1.4)$$

Shuni kuzatish mumkinki, $\Omega_{m_1,\dots,m_k}$ forma $f^{-m_k}(V)$ da silliq o‘lchov aniqlaydi. Shuningdek, biz $\varphi_{m_1,\dots,m_k}$ orqali $\Omega_{m_1,\dots,m_k}$ ning ω^k ga nisbatan Radon–Nikodim zichligini belgilaymiz, ya’ni

$$\Omega_{m_1,\dots,m_k}=\varphi_{m_1,\dots,m_k}\omega^k.$$

$\varphi_{m_1,\dots,m_k}$ funksiya $f^{-m_k}(V)$ da manfiy bo‘lmagan silliq funksiyadir. Quyida $\varphi_{m_1,\dots,m_k}$ uchun yuqoir chegarani bevosita 3.1.1-lemmadan foydalanib hosil qilamiz.

Natija 3.1.2 *Shunday C doimiy mavjudki, har bir $0 \le m_1 \le \dots \le m_k \le n \le N-1$ uchun $f^{-N}(U)$ da quyidagi*

$$\varphi_{m_1,\dots,m_k} \le C(kM)^{2kn}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Quyida asosiy natijani isbotlash uchun muhim rol o‘ynaydigan qator lemmalarni isbotlab o‘tamiz.

Lemma 3.1.3 *Quyidagi*

$$\limsup_{n\to\infty} \eta(n)^{1/n} = 1$$

shartni qanoatlantiruvchi shunday o‘suvchi $\eta:\mathbb{N}\to\mathbb{R}$ funksiya mavjud bo‘lib, har bir $1 \le m_1' \le \dots \le m_{k-1}' \le N-1$ uchun

$$\int_{f^{-N}(V)} \Omega_{0,m_1',\dots,m_{k-1}'} \le \eta(N)(d_{k-1})^N \tag{3.1.5}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Lemma 3.1.4 *Aytaylik u funksiya V da manfiy plyurisubgarmonik funksiya bo‘lsin. U holda u ga bog‘liq bo‘lgan shunday musbat doimiy A_1 mavjud bo‘lib, har bir $0 \le m_1 \le \dots \le m_k \le N \in \mathbb{N}$ uchun quyidagi*

$$\int_{f^{-N}(U)} |u|\,\Omega_{m_1,\dots,m_k} \le A_1 + m_k^2 \int_{f^{-N}(U)} \Omega_{m_1,\dots,m_k}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Quyidagi teorema ushbu bobning asosiy natijasidir.

Teorema 3.2.1 *Aytaylik $f:U\to V$ dominant topologik darajali ko‘phadsimon akslantirish va β (2.2.2) dagidek aniqlangan bo‘lsin. U holda $h_\nu(f) > \log\beta$ shartni qanoatlantiruvchi har qanday ergodik o‘lchov ν ning havzasi Julia to‘plami J_f da yotadi.*

Natija 3.2.2 *Aytaylik $f:U\to V$ dominant topologik darajali ko‘phadsimon akslantirish hamda β (2.2.2) dagidek aniqlangan bo‘lsin. Agar ν ergodik o‘lchovning entropiyasi $h_\nu(f) > \log\sqrt{d_{k-1}d_t}$ shartni qanoatlantirsa, u holda uning havzasi Julia to‘plamida yotadi.*

4-bobda 3-bobdagi asosiy natijani tadbiqlari hamda sohaga oid ayrim muhim natijalar isbotlangan. Aytaylik $f:U\to V$ dominant topologik darajali ko‘phadsimon akslantirish hamda β (2.2.2) dagidek aniqlangan va ν ergodik ehtimollik o‘lchov bo‘lsin. Oseledets teoremasiga ko‘ra, ν karralarini hisbolagan holda k ta *Lyapunov eksponentalari*ga ega. Ularni quyidagicha belgilaymiz:

$$-\infty \le L_k(\nu) \le L_{k-1}(\nu) \le \dots \le L_1(\nu)$$

Endi faraz qilaylik $h_\nu(f) > \log\beta$ bo‘lsin. U holda Bianchi–Raximov teoremasiga ko‘ra $0 < L_k(\nu)$ bo‘ladi, ya’ni barcha Lyapunov eksponentalari musbat bo‘ladi. Quyida biz, endomorfizmlar uchun Dupont tomonidan isbotlangan quyidagi natijani ko‘phadsimon akslantirish uchun isbotlaymiz.

Teorema 4.1.1 *f, ν va $1 \le j \le k$ uchun $L_j(\nu)$ lar yuqoridagi aniqlangan* *bo'lsin. U holda* ν *ga nisbatan deyarli barcha* $z \in V$ *uchun quyidagi o'rinli bo'ladi:*

$$\liminf_{r\to 0} \frac{\log \nu(B(z,r))}{\log r} \geq \frac{\log d_{k-1}}{L_1(\nu)} + \frac{h_\nu(f) - \log d_{k-1}}{L_k(\nu)},$$

bu yerda $B(z,r)$ *markazi* z *da va radiusi* $r > 0$ *bo'lgan shar. Xususan,* $\nu(E) > 0$ *bo'lgan har qanday Borel* $E \subset V$ *to'plam uchun* E *ning Hausdorff o'lchami* $\dim_H E$ *uchun quyidagi tengsizlik o'rinli:*

$$\dim_H E \geq \frac{\log d_{k-1}}{L_1(\nu)} + \frac{h_\nu(f) - \log d_{k-1}}{L_k(\nu)}.$$

Quyidagi teorema f ning Julia to'plami J_f uchun Hausdorff o'lchamining quyi chegarasini beradi.

Natija 4.1.2 *Entropiyasi* $h_\nu(f) > \log \beta$ *shartni qanoatlantiruvchi har bir ergodik o'lchov* ν *uchun quyidagi tengsizlik o'rinli:*

$$\dim_{\mathcal{H}} J \geq \frac{\log d_{k-1}}{L_1(\nu)} + \frac{h_\nu(f) - \log d_{k-1}}{L_k(\nu)}.$$

Keyingi natijani berishdan oldin, ko'phadsimon akslantirishlarning golomorf oilasining ta'rifini eslab o'tamiz.

Ta'rif 4.2.1 *Aytaylik* M *kompleks ko'phillik va* $\mathcal{U}$, $\mathcal{V}$ $M \times \mathbb{C}^k$ *ning bog'lamli ochiq qism to'plamlari bo'lib* $\mathcal{U} \subset \mathcal{V}$ *bo'lsin. Faraz qilaylik* $\pi_M : M \times \mathbb{C}^k \to M$ *standart proyeksiya bo'lsin. Har bir* $\tau \in M$ *uchun* $\varnothing \neq U_\tau \Subset V_\tau \Subset \mathbb{C}^k$ *bo'lsin, bunda* U_τ *bog'lamli,* V_τ *qavariq bo'lib,* $U_\tau := \mathcal{U} \cap \pi_M^{-1}(\tau)$ *va* $V_\tau := \mathcal{V} \cap \pi_M^{-1}(\tau)$ *tarzida belgilanadi. Shuningdek,* U_τ *va* V_τ τ *ga uzluksiz bog'liq bo'lsin.* $(\tau, z) \mapsto (\tau, f_\tau(z))$ ko'rinishda berilgan $f : \mathcal{U} \to \mathcal{V}$ golomorf akslantirishga *ko'phadsimon akslantirishlarning golomorf oilasi* deb aytiladi.

Natija 4.2.3 M *bir bog'lamli kompleks ko'phillik bo'lsin hamda* $(f_\tau)_{\tau \in M}$ *dominant topologik darajaga ega bo'lgan stabil ko'phadsimon akslantirishlar oilasi bo'lsin. Fiksirlangan* $\tau_0 \in M$ *uchun* $\beta\left(f_{\tau_0}\right)$ *miqdor (2.2.2) dagidek bo'lsin. U holda shunday* $\mathcal{L}$ *dinamik laminatsiya mavjudki,* $h_\nu\left(f_{\tau_0}\right) > \log \beta\left(f_{\tau_0}\right)$ *shartni qanoatlantiruvchi har bir ergodik* f_{τ_0}*-invariant ehtimollik o'lchovi* ν *uchun*

$$\nu(\{\gamma(\tau_0) : \gamma \in \mathcal{L}\}) = 1$$

tenglik bajariladi.

Teorema 4.4.6 *Aytaylik* $K_t \subset \mathbb{C}^n, t \in M$ *regulyar polinomial-qavariq kompakt to'plam bo'lsin va uning* $V(z, K_t)$ *Grin funksiyasi* t_0 *atrofida* t *ga nisbatan uzluksiz bo'lsin. Faraz qilaylik,* t_0 *atrofida* $u(\mathrm{dist}(z, K_t)) \leq V(z, K_t)$ *va* $u(0) = 0$ *shartlar bajaruvchi* $u : [0, +\infty) \to [0, +\infty)$ *qat'iy o'suvchi funksiya mavjud bo'lsin. U holda* K_t *kompaktlar oilasi Hausdoff ma'nosida* t_0 *da uzluksiz bo'ladi*

XULOSA.

Birinchi bobda oqimlar nazariyasi, ergodiklik nazariyasining ayrim tushunchalari, $\mathbb{C}$ dagi ko‘phadlarning dinamikasi va $\mathbb{P}^k$ dagi endomorfizmlarning dinamikasi yoritildi. Bundan tashqari, biz katta entropiyali o‘lchovlarning havzasi haqidagi de Thélin–Dinh teoremasining yangicha isbotini keltirdik.

Ikkinchi bobda biz ko‘phadsimon akslantirishlarni o‘rgandik. Xususan, bir nechta ko‘phadsimon akslantirish misollarini keltirdik va $\mathbb{P}^k$ endomorfizmlarining lifti $\mathbb{C}^{k+1}$ ning mos sohalarida ko‘phadsimon akslantirishlarni hosil qilishini ko‘rsatdik. Shuningdek, ko‘phadsimon akslantirishlar uchun Grin o‘lchovi va dinamik darajalar tushunchalarini o‘rgandik. Bundan tashqari, dominant topologik darajaga ega ko‘phadsimon akslantirishlar uchun maksimal entropiyali o‘lchovga nisbatan yaqinlashish tezligini aniqladik. Aniqroq qilib aytganda, biz endomorfizmlar uchun maksimal entropiyali o‘lchovga nisbatan yaqinlashish tezligi haqidagi Dinh–Sibony teoremasining ko‘phadsimon akslantirishlar uchun analogini isbotladik.

Shuningdek, maksimal entropiyali o‘lchovga nisbatan yaqinlashish tezligidagi asos $\sqrt{\frac{d_{k-1}}{d_t}}$ dan katta emasligini ko‘rsatdik.

Uchinchi bobda, II-bob natijalarini qo‘llagan holda, biz dominant topologik darajaga ega ko‘phadsimon akslantirishlarning har bir ergodik o‘lchovi, agar uning entropiyasi $\log\beta$ dan qat’iy katta bo‘lsa, Julia to‘plamida, ya’ni yagona maksimal entropiyali μ o‘lchovining havzasida yotishini isbotladik (bu yerda β (2.2.2) dagi kabi aniqlanadi). Xususan, entropiyasi $\log\sqrt{d_{k-1}d_t}$ dan qat’iy katta bo‘lgan har qanday ergodik o‘lchov havzasi Julia to‘plamida yotishini ko‘rsatdik. Bundan tashqari, biz ushbu natijani qo‘llab, dominant topologik darajalarga ega ko‘phadsimon akslantirishlarning Julia to‘plami uchun Hausdorff o‘lchamining quyi chegarasini oldik. Shuningdek, asosiy natijalarimiz o‘lchovlar ularning entropiyasi bo‘yicha kuchliroq chegarani qanoatlantirsa Bianchi–Raximov natijasidagi o‘lchov havzasiga qo‘yilgan shartni olib tashlash imkonini berdi.

Shuningdek, biz stabil ko‘phadsimon akslantirishlar oilasida barcha uzluksiz funksiyalar parametr bo‘yicha uzluksiz harakatlansa, Julia to‘plamlari golomorf tarzda siljishini isbotladik. Bundan tashqari, regulyar kompakt to‘plamlarning uzluksizligi bilan ularning Grin funksiyalari orasidagi bog‘liqlikni ham o‘rgandik.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

БАЗАРБАЕВ САРДОР УРИНБОЕВИЧ

МЕРЫ БОЛЬШОЙ ЭНТРОПИИ ДЛЯ ПОЛИНОМИАЛЬНО-ПОДОБНЫХ ОТОБРАЖЕНИЙ В ПРОСТРАНСТВЕ НЕСКОЛЬКИХ КОМПЛЕКСНЫХ ПЕРЕМЕННЫХ

01.01.01 — Математический анализ

АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент — 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2025.4.PhD/FM1390.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском — резюме) на веб-сайте ученого совета (http://ik-fizmat.nuu.uz) и в образовательной информационной сети «ZiyoNet» (http://www.ziyonet.uz/).

Научный руководитель:	**Рахимов Карим Хошимович** Доктор физико-математических наук
Научный консультант:	**Фабрицио Бьянки** профессор Университета Пизы (Италия)
Официальные оппоненты:	**Розиков Уткир Абдуллоевич** Доктор физико-математических наук, академик
	Дук Виет Ву (Германия) профессор Кёльнского университета (Германия)
Ведущая организация:	**Ургенчский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета № DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 при Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека 11 декабря 2025 года в 16:00 часов. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: +998-71-227-12-24, факс: +998-71-246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (зарегистрирована под № 219). ***Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: +998-71-246-02-24.***

Автореферат диссертации распространён 5 декабря 2025 года.

(Протокол реестра № 2 от 5 декабря 2025 года).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

О. С. Зикиров
Председатель Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., профессор

Р. М. Жураев
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.ф.-м.н. (PhD)

Р. Н. Ганиходжаев
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (автореферат диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Исследование динамических систем в нескольких комплексных переменных стало центральной темой современной математики благодаря глубоким связям с геометрией, теорией вероятностей, эргодической теорией и теоретической физикой. Ключевым понятием здесь является *энтропия*, количественно характеризующая сложность и непредсказуемость динамики. В частности, меры максимальной или большой энтропии выступают каноническими объектами, описывающими хаотические режимы в голоморфной динамике.

